

O‘QITUVCHI VA UNING OBRAZI

Adizova Roziya Shoali qizi

Samarqand davlat chet tillari instituti talabasi

Gmail: roziyaadizova2005@icloud.com

Ilmiy rahbar: **Zubaydova Nilufar Ne‘matullayevna**

Annotatsiya: Ushbu maqola haqiqiy o‘qituvchi qanday bo‘lishi kerakligini va unga qo‘yilgan talablarni yoritadi. Unga pedagogik mahorat qay darajada kerakligi, o‘quvchi hayotida uning o‘rni muhimligini, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlar qanday bõlishi kerakligini bir qancha misollar va isbotlar bilan yoritib beradi.

Kalit so‘zlar: o‘qituvchi, obraz , pedagogik mahorat, pedagogik muloqot, ijodkor, notiq, tashabbuskor.

Ustoz misli yonib turgan shanga o‘xshaydi. O‘zi yonib atrofga nur-ziyo taratadi. Ma‘lumki, hamma kasblarni ham avvalo ustoz-muallim o‘rgatadi. Ustoz -ilm o‘rgatuvchi, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi, tarbiyalovchi murabbiydir. Dastlabki saboqni ham o‘qituvchi beradi. Dastlabki ona-Vatan so‘zlarining ma‘nosini, mohiyatini ham o‘qituvchi o‘rgatadi. Shuning uchun ham barcha kasblar ichida o‘qituvchilik-muallimlik kasbi o‘ta sharaflı va mas‘uliyatli hisoblanadi. Zero, Prezidentimizning “O‘zbekistonda bugundan boshlab, eng hurmatli, eng e‘zozli inson — bu muallim!” yoki “O‘qituvchini hurmat qilmaganni men ham hurmat qilmayman!”, deb ta‘kidlab aytganlari o‘qituvchilik kasbining nechog‘lik sharaflı kasb ekanligidan dalolat beradi. Mana shu o‘rinda tabiiy ravishda savol tug‘iladi. Xo‘sh, o‘qituvchi kim? U qanday sifatlarga ega bo‘lmog‘i lozim? Xususan, bugungi kun o‘qituvchisi qanday malakalar bilan qurollantirilmog‘i darkor? Va boshqalar

O‘qituvchilik kasbi yuksak sharaflı kasbdir. Bu kasb hech bir kasbga o‘xshamaydi. Taniqli rus pedagogi A.S. Makarenko o‘qituvchilik kasbiga juda yuqori baho berib, unga shunday ta‘rif beradi: Tarbiyachi tashkil etishni, yurishni, hazillashishni, quvnoq yoki jahldor bo‘lishni bilishi lozim, u o‘zini shunday tutishi kerakki, uning har bir harakati, yurish-turishi, kiyinishi bolalarni tarbiyalasin”. Bu ta‘rifdan shunday xulosaga kelish mumkinki, pedagog har tomonlama mukammal, o‘quvchilar uchun ideal shaxs bo‘lishi lozim. Hattoki, poedagogning kiyinishi ham bolalarni tarbiyalasin.

O'qituvchilar o'quvchi, ota-onalar hamda hamkasblari bilan muloqot jarayonida fikrini aniq va lo'nda bayon etilishiga ahamiyat qaratishlari maqsadga muvofiq dir. Ular bilan munosabat jarayonida so'zni salbiy holatlar haqidagi dalillarni keltirishdan boshlamasligi, aksincha, o'quvchilarning (yoki hamkasbi, ota-onalar) muvaffaqiyatlarini e'tirof etishlari, ularni yanada boyitishga ishonch bildirishi bilan muloqotni tashkil qilishi lozim. Muloqot jarayonida o'qituvchining so'zlaridan suhbatdoshiga nisbatan xayrixohlik, samimiylilik, do'stona munosabat, yaxshi kayfiyat sezilib tursin. O'qituvchining mazkur talablarga muvofiq keluvchi qiyofasi uning o'quvchilar, hamkasblari hamda ota-onalar o'rtasida obro'-e'tibor qozonishini ta'minlaydi.

Yuqoridagi kabi talablar asosida pedagogik mahoratga ega bo'lish ta'lim-tarbiya samaradorligini ta'minlash garovi bo'libgina qolmay, ayni vaqtda o'qituvchining jamoadagi obro'-e'tiborini ham oshiradi, o'quvchilarda unga nisbatan hurmat hissi shakllanib boradi. Kasbiy mahoratni oshirish yo'lida amaliy harakatlarni tashkil etish -pedagogik faoliyatda yo'l qo'yilgan yoki qo'yilayotgan xatolardan holi bo'lish, o'quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar bilan munosabatda muvaffaqiyatlarga erishish imkoniyatini yaratadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, pedagog o'z fanini chuqur bilishi, pedagogik mahoratga ega bo'lishi bilan birgalikda chet tillarini ham bilishi lozim. Masalan, boshlang'ich sinf o'qituvchisi ham ingliz tilini hech bo'lmaganda mukammal darajada bo'lmasa ham qisman bilishi kerak. Sababi boshlang'ich sinflarning yangi nashrdan chiqqan matematika darsliklarida o'lchov birliklari ingliz tilida kiritilgan. O'qituvchi bolaga buni tushuntira olishi kerak, buning uchun albatta ingliz tilidan xabardor bo'lishi lozim. Zamonaviy kompyuter texnologiyalari va smart doskalar bilan ishlash uchun ham til bilimdonligi pedagog uchun zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I.A.Karimov „, Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati”-Toshkent.Sharq nashriyoti
2. „Pedagogik mahorat” darslik A.Xoliqov -Toshkent- 2011
3. „Umumiy pedagogika” B.X.Xodjayev -Toshkent-2017
4. „Pedagogik atamalar lug'ati” Toshkent-2008
5. Omonov, A. O. O., & Haydarov, S. A. (2021). Tarix Fanini O'rganishda Frigiya Podsholigining O'rni Va Ahamiyati. Scientific progress, 1(5).
6. Turg'Unboyeva, M., & Haydarov, S. A. (2021). Tarix Fanini O'qitishda “O'ttiz Yillik Urush” Ning Ahamiyati. Scientific progress, 1(5).

7. Ashirova, N. X. Q., & Haydarov, S. A. (2021). Tarix Fanini O'rganishda Qadimgi Hindiston Madaniyatining O'rni Va Ahamiyati. *Scientific progress*, 1(5).
8. Yoriqulov, A. S. O. G. L., & Haydarov, S. A. (2021). Tarix Fanini O'qitishda Hind Sivilizatsiyasi O'rni. *Scientific progress*, 1(5).
9. Rahimberdiyev, A. E. O. G. L., & Haydarov, S. A. (2021). Tarix Fanini O'rganishda Elam Davlatchiligining O'rni Va Ahamiyati. *Scientific progress*, 1(5).
10. Nomozov, M. M. O., & Haydarov, S. A. (2021). Ozbekiston Respublikasida Ta'lim Sohasidagi Islohotlar. *Scientific progress*, 1(5).
11. Fayziyeva, Y. I. Q., & Haydarov, S. A. (2021). Tarix Fanini O'qitishda Suriya Va Finikiya Podsholigi O'rganilishi. *Scientific progress*, 1(5).
12. Haydarov, S. A. (2021). Tarix Fanini O'rganishda Franklar Davlati O'rni Va Ahamiyati. *Scientific progress*, 1(5).
13. Makhmudova, G. N., & Gulomova, N. F. (2023). Unlocking the potential of the digital economy in the EAEU countries: identifying and overcoming obstacles. *π-Economy*, 16 (4), 7–25. DOI: <https://doi.org/10.18721/JE.16401>.
14. Гуломова, Н. (2022). Основные компоненты развития «умного» туризма в регионах. Направления развития благоприятной бизнес-среды в условиях цифровизации экономики, 1(01), 63-67.
15. Makhmudova, G., Gulomova, N., & Mirzaev, D. (2022). Legal aspects of cryptocurrency and blockchain technologies: Uzbekistan and foreign experience.
16. Valieva, N. (2022). Marie-Laure Derat, L'énigme d'une dynastie sainte et usurpatrice dans le royaume chrétien d'Éthiopie du XIe au XIIIe siècle. *Aethiopica*, 25, 258-261.
17. Валиева, Н. (2021). «Житие Лалибэлы»: новые перспективы исследования. *Библия и христианская древность*, 3(11), 197-214.
18. Valieva, N. (2021). Prof. Geta (t) chew Haile:(approx. 04/19/1931–June 10, 2021). *Scrinium*, 17(1), 16-19.
19. Valieva, N., & Liuzzo, P. M. (2021). Giving Depth to TEI-Based Descriptions of Manuscripts: The Golden Gospel of Ham. *Aethiopica*, 24, 175-211.
20. Нуриллаев, Ж. Я., Нуриллаев, Х. Ж., Бердимуродова, Ф. П., & Мухамадиев, Н. К. (2023). Оценка Лечебных И Метафилактических Мероприятий При Мочекаменной Болезни В Зависимости От Составы Камня. *Медицинский вестник Башкортостана*, 18(1 (103)), 24-28.
21. Valieva, N. (2020). The Manuscript Book in the Traditional Culture of Ethiopia, written by Platonov Vyacheslav Michajlovič, 2017. *Scrinium*, 16(1), 410-412.

22. Valieva, N. (2020). Getatchew Haile, The Ethiopian Orthodox Church's Tradition on the Holy Cross. *Aethiopica*, 23, 281-285.
23. Valieva, N. (2019). Nafisa Valieva, The 'Gadla Lālibalā collection of textual units': tradition and documentation. *Aethiopica*, 22, 315-318.
24. Махмудова, Г. Н., & Гуломова, Н. Ф. (2023). Проблемы формирования цифровой экономики в странах ЕАЭС. In *Интеллектуальная платформенная экономика: тенденции развития* (pp. 10-48).
25. Валиева, Н. Ф. Библия И Христианская Древность. *Библия И Христианская Древность Учредители: Кожухов Сергей*, (3), 197-214.
26. Валиева, Н. А. (2022). Вақф Тушунчаси Ва Тарихдаги Вақф Ташкилотлари Ҳақида. *Oriental Journal of Social Sciences*, 2(2), 107-114.